

O‘ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARI SHAHARLARIDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINING AHVOLI (XX asrning 70-80 yillari)

Polvonov Kozimbek Naimovich

*Qarshi davlat universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
e-mail: kozimbekpolvonov6@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0004-3468-6941>
UDK 94(575.1):610(045)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning 70 - 80 yillarida O‘zbekistonning janubiy hududlari shaharlarida sog‘liqni saqlash tizimining ahvoli xususida so‘z yuritiladi. Jumladan, Qashqadaryo va Surxondaryo oblastlari shaharlarida davolash muassasalarining bunyod etilishi, shifoxonalarning tibbiy asbob-uskunalar bilan ta‘minlanishi, tizimda xodimlar miqdorining ko‘payib borishi kabi ijobiy holatlar, shuningdek, soha rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan qator xato va kamchiliklar haqida ma‘lumotlar berilib, ular atroflicha tahlil etilgan.

Tayanch so‘zlar: Janubiy O‘zbekiston, Qashqadaryo, Surxondaryo, oblast, shahar, shaharlar, sog‘liqni saqlash, shifoxona, mablag‘, tibbiyot xodimlari, asbob-uskunalar, jihozlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается состояние системы здравоохранения в городах южных регионов Узбекистана в 70-х и 80-х годах XX века. В частности, представлены позитивные изменения, такие как строительство медицинских учреждений в городах Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей, оснащение больниц медицинским оборудованием и увеличение численности персонала в системе, а также ряд ошибок и недостатков, негативно повлиявших на развитие сектора, которые анализируются подробно.

Ключевые слова: Южный Узбекистан, Кашкадарья, Сурхандарья, регион, город, города, здравоохранение, больница, фонды, медицинский персонал, оборудование, расходные материалы.

Abstract. This article discusses the state of

the healthcare system in the cities of the southern regions of Uzbekistan in the 70s and 80s of the 20th century. In particular, positive developments such as the construction of medical institutions in the cities of Kashkadarya and Surkhandarya regions, the provision of hospitals with medical equipment, and the increase in the number of employees in the system are presented, as well as a number of errors and shortcomings that negatively affected the development of the sector, which are analyzed in detail.

Keywords: South Uzbekistan, Kashkadarya, Surkhandarya, region, city, cities, healthcare, hospital, funds, medical personnel, equipment, supplies.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). O‘zbekistonda davlat siyosatining markaziy yo‘nalishlaridan biri sog‘liqni saqlash va tibbiyotni rivojlantirishga qaratilgan. XX asrning 70 — 80 yillarida sohani taraqqiy ettirish borasida respublikaning janubiy hududlari shaharlarida muayyan ishlar amalga oshirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Janubiy O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimining shakllanishi va rivojlanishi tarixi ko‘pgina tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. S.Tursunov, J.Tursunov, G.Mo‘minova, E.Qobilov, T.Pardayev, J.Eshtemirov, H.Kamolova, A.Xo‘janazarov kabilarning tadqiqotlarida mavzuga oid qimmatli ma‘lumotlar berilgan. Ammo, mazkur ishlarda O‘zbekistonning janubiy hududlari shaharlarida sog‘liqni saqlash tizimining ahvoli XX asrning 70 - 80 yillari misolida alohida mavzu sifatida

o'rganilmagan.

Tadqiqotni yoritishda asosan arxiv materiallari, jumladan, Qashqadaryo va Surxondaryo hududlaridagi tuman arxivlari va ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Maqolada XX asrning 70 - 80 yillarida O'zbekistonning janubiy hududlari shaharlarida sog'liqni saqlash tizimining ahvoli ilmiylik va tarixiylik tamoyiliga asoslanib, tizimli ravishda tahlil etilgan. Shuningdek, to'plamlarda berilgan ma'lumotlarga tayangan holda statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Janubiy hududlar shaharlarida sog'liqni saqlash tizimida XX asr 70 — 80 yillarida muayyan o'zgarishlar yuz berdi. Yillar davomida tibbiyot sohasiga ajratilayotgan mablag'lar miqdori oshirilib borilib, sog'liqni saqlash muassasalari binosi qurila borgan va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga harakat qilingan.

Respublikaning janubiy hududlaridan biri Qashqadaryo oblastida, jumladan, uning shaharlarida sog'liqni saqlash tizimiga alohida e'tibor qaratilib, ajratilgan mablag'lar miqdori ortib borgan. Kitobdagi tibbiyot muassasalariga 1970-yilda 1 339 800 so'm, 1975-yilda 1 697 600 so'm mablag' ajratilgan. 1976-1978 yillarda Kitob shahrida bir kunda 250 bemor qabul qiladigan yangi poliklinika binosi va 100 o'rinli yuqumli kasalliklar shifoxonasi qurilib, foydalanishga topshirilgan. Shuningdek, Kitob rayon markaziy shifoxonasida 45 o'rinli travmatologiya bo'limi, 40 o'rinli revmokordologiya bo'limi tashkil qilingan. Arxiv manbalarida keltirilishicha, mavjud shifoxonalar binolari vaqt o'tishi bilan talabga javob bermay qolgan edi. Shu sababli 1989-1990-yillarda Kitob shahrida zamonaviy Kitob rayon markaziy shifoxonasi, ko'p tarmoqli bolalar shifoxonasi va bolalar yuqumli kasalliklar shifoxonasi ochilgan. Shaharda markaziy dorixona qurilib, foydalanishga topshirilgan[1].

Koson shahrida 1972-yilda 100 o'rinli tug'ruqxona, markaziy kasalxonada 25 o'rinli asab kasalliklari bo'limi ochilgan. Shahardagi yuqumli kasalliklar shifoxonasi yangi binoga ko'chirilib, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Shaharda 1982-yilda 3 qavatli 160

o'ringa ega bo'lgan zamonaviy shifoxona, 500 o'rinli poliklinika binosi qurilib, ishga tushirilgan. Bolalar shifoxonasi, bolalar poliklinikasi, yuqumli kasalliklar va teri kasalliklari shifoxonalari alohida binolarga ko'chirilgan. Shifoxonalar kapital va joriy ta'mirlashdan chiqarilib, feldsher-akusherlik punktlari yangi tibbiyot asbob-uskunalar bilan ta'minlangan.

1974-yilda Beshkentda 2 qavatli dorixona, markaziy kasalxona huzurida jarrohlik va tug'ruqxona uchun 2 qavatli yangi bino qurilib foydalanishga topshirildi. 1978-1979 yillarda shahardagi markaziy kasalxona huzurida xirurgiya, fizo-terapiya bo'limlari qurilib, foydalanishga topshirilgan[2].

Bu boradagi ishlar viloyatning Qamashi shahrida ham izchillik bilan davom ettirilgan. Shaharda 1978-yilda markaziy shifoxona binosi qurilib, foydalanishga topshirilgan. Shifoxonada tish davolash xonalari ochilgan. 1980-yilda tibbiyot asbob-uskunalar bilan ta'min etishni yaxshilash uchun magazin – optika tashkil qilindi. Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish yuzasidan ham muayyan ishlar amalga oshirildi. Shahardagi rayon markaziy shifoxonasida 1981-yildan 1987-yilgacha bolalar uchun o'rinlar soni 50 o'randan 180 o'ringa, onalar uchun 80 o'rinli tug'ruqxonadagi o'rinlar soni 125 o'ringa yetkazildi. Shaharda 1984-yilda 20 o'rinli onalar va bolalar kasalxonasi tashkil qilindi. Shahrisabz shahrida 1981-yilda 3 qavati dorixona, 1982-yilda Shahrisabz Markaziy shifoxonasi binosi qurilib, foydalanishga topshirilgan. Zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan 40 ta kabinetda 27 xil mutaxassisliklar bo'yicha tibbiyot xodimlari bemorlarga xizmat ko'rsata boshlagan[3]. 1983-yilda Chiroqchidagi markaziy kasalxonada 6 o'rinli reanimatsiya bo'limi ochildi. Bu bo'limda zamonaviy "Kardiomanitol" apparati o'rnatildi. Bu apparat tufayli bir vaqtning o'zida 4 bemorda ichki organlar faoliyatini ekranda kuzatib turish imkoniyati yaratildi.

Surxon vohasi shaharlarida ham tibbiyot muassasalari va ulardagi xodimlar soni to'xtovsiz ortib bordi. 1975-yilda Sherobod shahridagi shifoxonalarda o'rinlar soni 295 tani

tashkil etib, ularda 48 nafar vrach, 223 nafar o'rta tibbiyot xodimlari ishlagan. 1983-yilda o'rinlar soni 600 taga yetkazilgan, bitta markaziy shifoxona, 3 ta poliklinika, ko'z kasalliklari, rayon sanitariya-epidemiologiya stansiyasi va dorixonalarda 98 nafar vrach, 358 nafar o'rta tibbiyot xodimlari xizmat qilgan. 1986-yilda shahardagi rayon markaziy kasalxonasida 60 o'rinli bolalar bo'limi binosi qurilib, foydalanishga topshirilgan. Jarqo'rg'on shahrida ham yangi shifoxonalar qurilib, tibbiyot muassasalari soni ortib borgan. 1989-yilda ikki qavatli kattalar poliklinikasi binosi qurilib foydalanishga topshirilgan. 1990-yilda poliklinikada 21 nafar vrach, 51 nafar o'rta tibbiyot xodimlari xizmat qilgan[4]. 1990-yilda Sharg'un shahri aholisiga 2-sonli rayon shifoxonasi, shahar poliklinikasi, stomatologiya poliklinikasi va dorixona tibbiy xizmat ko'rsatgan. 2-sonli rayon shifoxonasi 260 o'rinli bo'lib, unda terapiya, jarrohlik, bolalar, tug'ruq, nevrologiya va reanimatsiya bo'limlari faoliyat olib borgan.

Ta'kidlash joizki, janubiy hududlar shaharlariga vrachlar, o'rta bo'g'in tibbiyot xodimlarini yetishtirib berishda asosan, Samarqand, Toshkent va Andijon shaharlaridagi tibbiyot institutlari hamda Qarshi (1946-yil), Termiz (1963-yil), Shahrisabz (1966-yil), Sherobod (1982-yil) va Denov (1984-yil) shaharlarida tashkil topgan tibbiyot bilim yurtlari o'z hissasini qo'shib kelgan.

Termiz tibbiyot bilim yurtining Denov filiali 1984-yilda Denov shahrida ochildi. 1986-yil mustaqil Denov tibbiyot bilim yurti tashkil etildi. Bilim yurtiga talabalar qabul qilinishi yillar davomida ko'payib borgan. Bilim yurtida 1984-85 yillar 120 tadan tahsil oluvchilar qabul qilingan bo'lsa, 1986-87 yillari 150 tadan, 1988 yil 180, 1989-yil 210, 1990 va 1991-yillar 240 tadan talabalar qabul qilingan[5].

Janubiy hududlar shaharlarida davolash muassasalarining ortib borishi bilan ularda ishlayotgan tibbiyot xodimlari soni ham ko'payib borgan. Masalan, Qarshi shahridagi davolash muassasalarida 1972-yilda 165 nafar shifokor, 434 nafar o'rta tibbiyot xodimlari

mehnat qilgan. Bu 1971-yilga nisbatan 47 nafar vrach va 30 nafar tibbiyot xodimlariga ko'p demakdir. 1969-yilda G'uzorda 42 nafar vrach ishlab kelgan bo'lsa, 1979-yilda ularning soni 88 nafarga, o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimlari soni 352 nafarga yetdi.

1970-yilda Yakkabog' aholisiga 58 nafar vrach, 276 nafar o'rta tibbiyot xodimlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1980-yilda ularning soni ko'payib 130 nafar vrach va 523 nafar o'rta tibbiyot xodimlari faoliyat olib borgan. Chiroqchi aholisiga 1970-yilda 65 nafar vrach, 257 nafar o'rta ma'lumotli tibbiyot hamshirasi faoliyat yuritgan bo'lsa, 1980-yilda ularning soni ko'payib, 115 nafar vrach, 395 nafar o'rta maxsus hamda 1990-yilda 258 nafar vrach, 920 nafardan ortiq o'rta tibbiyot xodimlari samarali mehnat qildilar[6].

1975-yilda Boysun shahrida 50 nafar vrach, 88 nafar o'rta tibbiyot xodimlari ishlagan bo'lsa, 1990-yilda vrachlar soni 79 tani, o'rta maxsus tibbiyot xodimlari soni 225 tani tashkil etgan. 1981-yilda Sherobod shahrida 60 nafar vrach, 159 nafar o'rta tibbiyot xodimlari, 1982-yilda esa ularning soni ko'payib, 86 nafar vrach, 301 nafar o'rta tibbiyot xodimlari mehnat qilgan. 1985-yilga kelib shaharda 111 nafar vrach (har o'n ming aholiga 15,5 ta) va 440 nafar o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimlari (har o'n ming aholiga 61,5 ta) xizmat qilgan. 1987-yilda Denov shahridagi tibbiyot muassasalarida 146 nafar vrachlar (har o'n ming aholiga 29,4 ta) va 293 nafar o'rta tibbiyot xodimlari (har o'n ming aholiga 60,4 ta) faoliyat ko'rsatgan.

Janubiy hududlarda shifokorlar soni o'sib borgan, oliy ma'lumotli va o'rta tibbiyot xodimlari miqdori 1971-yilga nisbatan 1990-yilga kelib ko'paygan. 1971-yilda Qashqadaryo va Surxondaryo oblastlarida shifokorlar har 10 000 aholiga teng holatda, 13,4 ta bo'lsa, 1990 yilda ko'payib, Qashqadaryoda 27,1 ta, Surxondaryoda 25,5 tani tashkil etgan[7].

O'rta tibbiyot xodimlarining ko'rsatkichi ham yuqorilab borgan. Biroq, shunday bo'lsa-da, respublika ko'rsatkichidan har ikkala oblastlarda kadrlar masalasi past ko'rsatkichda bo'lgan.

Shifokorlar va o'rta tibbiyot xodimlarining har 10 000 aholiga to'g'ri kelishi

Respublika, oblastlar	Shifokorlar			O'rta tibbiyot xodimlari		
	1971-yil	1980-yil	1990-yil	1971-yil	1980-yil	1990-yil
O'zbekiston	21,0	28,5	35,8	67,4	83,6	110,7
Qashqadaryo	13,4	22,8	27,1	63,2	73,5	100,6
Surxondaryo	13,4	20,5	25,5	59,0	67,1	90,0

Shaharlarda salomatlik posbonlarining malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilib, attestatsiyadan o'tgan xodimlar soni ko'payib bordi. Masalan, 1970-yilda Chiroqchidan 18 nafar vrach va 13 nafar o'rta tibbiyot xodimlari, 1980-yilda Yakkabog'dan 33 nafar vrach va 61 nafar o'rta tibbiyot xodimlari viloyat, respublika va Ittifoq shaharlarida malaka oshirdilar. 1978-yilda G'uzordan 28 nafar vrach, 1989-1990 yillar mobaynida esa 71 nafar vrach va 164 nafar o'rta tibbiyot xodimlari o'z malakasini oshirdilar[8]. Jarqo'rg'on shahrida 1989-yilda 4 nafar vrach attestatsiyadan o'tgan, 2 nafar vrachning toifasi oshirilgan. 1990-yilning 5 oyi mobaynida 8 nafar vrach attestatsiyadan o'tgan.

Sohani rivojlantirishda o'z hissasini qo'shgan fidoyi tibbiyot xodimlari ham yetishib chiqdi. Chiroqchi sog'liqni saqlash bo'limiga rahbarlik qilgan Akram Akbarov, Salim Ahmedov, To'yin Rahimov, Abdurashid Jo'raqulovlar, Yangi Nishon shahridagi Nishon tuman sog'liqni saqlash bo'limini boshqargan Hasan Sayfiyev, Xolmat Omonov, Xalil Jalilov, Sardor Erkayevlar, Nishon tumani markaziy shifoxonasida oliy toifali shifokorlardan Elboy Umbarov, Mahsud Boboyev, Shermamat Bekkayev, birinchi toifali vrachlardan Mirzo Xudoynazarov, Sobir Qodirov, Tojimurod Geldiyev, Abdulla Xudoyberdiyevlar hamda Muborak shahri va tumanida Ro'zigul Navro'zova, Farhod Saidov, Toshoy Xalilova va Halimaxon Saidova[9] kabilar tibbiy xizmat sohasini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shdilar.

Boysun shahar aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatishning sifat va samaradorligiga erishib, xalq hurmatiga sazovor bo'lgan vrachlardan: A.A'zamov, R.Sattorov, X.Mamadiyev, G.Ramazonova, M.Glyaziddinova, Sh.Azizova, A.Olloqulov, M.Muhammadiyev, K.Haydarov, J.Nazarov, o'rta tibbiyot

xodimlaridan: A.Xo'jaqulov, R.Pashkova, L.Salisov, Z.Zoirovalarni ko'rsatish mumkin[10].

Janubiy hududlarning boshqa shaharlarida ham bunday fidoyi shifokorlardan ko'plab misollar keltirish mumkin.

Viloyat shaharlarining sog'liqni saqlash tizimida yutuq va muvaffaqiyatlar bilan birga qator muammo va kamchiliklar ham mavjud edi. Shaharlarda markaziy kasalxonalar va ular huzuridagi bo'limlar el salomatligi yo'lida faoliyat yuritgan. Keyinchalik esa bo'limlar alohida bo'lib, ajralib chiqa boshlagan. Ayrim shaharlardagi shifoxonalar o'z binosiga ega bo'lmas, moslashtirilgan binolarda tashkil etilar edi. Masalan, 1980-yilda Boysun shahrida 4 ta feldsher-akusherlik punktlari ishlab turgan bo'lib, ularning barchasi ham o'z binosiga ega emas edi. 1986-1988 yillarda 16 ta ma'muriy bino Chiroqchidagi tibbiyot muassasalariga berilgan edi. Bu shubhasiz, sohaga salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Tizimdagi asosiy muammolardan yana biri — tibbiyot xodimlarining yetishmasligi edi. 1990-yil O'zbekiston Respublikasida har 10 000 aholiga 42 ta vrach lozim bo'lsa, Chiroqchida 14 ta vrach to'g'ri kelgan. Bundan tashqari akusher-genekologlar, pediatriklar yetishmas edi. Respublikada 1990-yil 1000 aholiga 5 ta akusher-genekolog to'g'ri kelsa, Chiroqchida 1 nafar to'g'ri keldi.

1982-yilda Koson shahar bolalar poliklinikasida tibbiyot xizmati ko'rsatuvchi shtatlar bo'yicha 3 ta vrach, 4 ta maxsus o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimlari yetishmagan. Xuddi shuningdek, shahardagi bolalar kasalxonasida ham 3 ta oliy ma'lumotli vrach, 11 ta maxsus o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimlari, 12 ta tibbiyot hamshiralari yetishmas edi[11]. 1990-yilda Sherobod shahridagi sanitariya-epidimologiya stansiyasida 21 ta vrach o'rniga 12 nafar, 53 ta

o'rta tibbiyot xodimlari o'rniga 19 nafar hamshiralari ishlagan[12].

Janubiy O'zbekiston shaharlarida "Tez yordam" shifoxonalari, markaziy shifoxonalar huzurida bo'limlari tashkil etildi. Ammo bu tarmoqda ham bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatish talab darajasida bo'lmagan, texnika vositalariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Masalan, 1979-yilda Qarshi shahrida shoshilinch va tez tibbiy yordam shifoxonasi tashkil etilgan. 1986-yilgi arxiv ma'lumotlarga qaraganda, muassasada tibbiy uskunalar yetishmasligi, bo'limlarda sanitariya holatlari buzilganligi va 50 bemorga mo'ljallangan terapiya bo'limining oshxonasida atigi 7 ta o'rindiqli borligi qayd etilgan. 1983-yilda Boysun shahridagi birlashgan (rayon va shahar) kasalxonasidagi 3 ta tez yordam mashinasidan 2 tasi, chekka hududlarga xizmat ko'rsatuvchi 2 ta UAZ mashinasidan 1 tasi ishlamagan, mavjud bir dona yuk mashinasi ham texnik nosozligi sababli undan foydalanish imkoni bo'lmagan. 1985-yilda Beshkent markaziy shifoxonasi huzuridagi "Tez yordam" bo'limida 10 dan ortiq tez yordam mashinasidan atigi 3 tasi ishlab turgan, xolos. Ishlayotgan mashinalar ham eng zarur hisoblangan maxsus narkoz apparatlari, kislorod ballonlari bilan ta'minlanmagan edi.

Aholi orasida tushuntirish ishlarining qoniqarsiz olib borilishi, toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishning pastligi, ko'pgina xonadonlarning, bolalar muassasalarining, savdo va umumiy ovqatlanish obyektlarining tozalik jihatidan qoniqarsizligi, aholi tibbiy madaniyatining pastligi hamda tibbiyot xodimlarining aybi bilan shaharlarda yuqumli kasalliklarning ko'payishi kuzatilgan. Masalan, Sherobod shahrida 1980-yilda yuqumli gepatit kasalligi bilan 625 kishi og'rigan bo'lsa, 1981-yilda ularning soni 784 taga yetgan. Boysun shahrida 1982 va 1983-yillarda quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi: Qorin tifi va paratiflar 3 tadan 6 taga, dizentiriya 17 tadan 22 taga, virusli gepatitlar 167 tadan 288 taga, boshqa OKZ (Ostriye kishechniye zaboлевaniya – o'tkir ichak kasalliklari) kasalliklari 123 tadan 142 taga ko'paygan. Shaharda bolalar o'limi ham ko'payib borgan. Har 10 000 aholiga 1985-yilda 48 ta, 1986-yilda

59,3 ta, 1987-yilning 4 oyi davomida 53,1 tani tashkil etgan. Sho'rchi shahrida 1983 va 1984-yillar holatida dizentiriya kasalligi 79 tadan 84 taga, yuqumli gepatit bilan og'riganlar 1321 tadan 1421 taga ortgan. Shahar hududida bolalar o'limi har 1000 bolaga 1983-yilda 38,8 ta, 1984-yilda 53,8 tani tashkil etgan[13].

Surxondaryoning Sharg'un, Sho'rchi va Denov shaharlarida ba'zi kasallanishlar holati pasayganligi kuzatilgan. Sharg'unda 1977-yilga nisbatan 1978-yilda yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlar soni ozaygan. Masalan, difteriya kasalligiga chalinganlar 19 tadan 14 taga, OKZ bilan kasallanganlar 16 tadan 9 taga pasaygan[14]. Sho'rchi shahrida bolalar o'limi holati kamaygan. 1987-yilda bolalar o'limi holati har tug'ilgan 1000 bolaga 41,4 ni, 1988-yilda esa 30,1 ni tashkil qilgan. Bolalar o'rtasida gepatit bilan og'rigan bemorlar sonida ham pasayish bo'lgan. Shaharda 1987 va 1988-yillar mobaynida bunday bemorlar mos ravishda 388 tadan 163 taga kamaygan. 1990-yilning 11 oyida Denov shahrida bolalar o'rtasidagi o'lim har tug'ilgan 1000 bolaga 30,4 nafarga to'g'ri kelgan. Bu 1989-yilning shu davriga nisbatan 0,4 nafarga kamaygan. Shahar aholisi o'rtasida yuqumli kasalliklar bilan kasallanish 1990-yilning 11 oyida 1989-yilning 11 oyiga nisbatan dizentiriya 32 foizga, sariq kasalligi 83 foizga, oshqozon-ichak kasalliklari 40 foizga kamaygan[15].

Qashqadaryo oblastining Beshkent, Koson va Chiroqchi shaharlaridagi markaziy shifoxonalarining bolalar, tug'ruq bo'limlaridagi ahvol talabga javob bermagan. Koson shahridagi tug'ruqxona 100 o'rinli bo'lib, tug'ruqxonada 1982-yilda 12 ta oliy va 30 ta maxsus o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimlari xizmat qilgan. 1981-yilda tug'ruqxonada 2512 ta tug'ilish bo'lgan. Achinarlisi shundaki, tug'ruqxonaning qattiq va yumshoq jihozlar bilan ta'minlanishi mutlaqo talabga javob bermagan, masalan, choyshablar 950 o'ringa 352 ta, yostiq jildlari 906 o'ringa 415 tani tashkil etgan, xolos. Beshkentdagi markaziy shifoxonaning bolalar bo'limida kasal bola bilan ona bir o'rindiqda yotishi, Chiroqchi shahridagi markaziy shifoxonaning tug'ruqxona bo'limidagi 4 o'rinli xonalarga 6-7 kishi joylashtirilishi

zamon talabiga, sanitariya qoidalariga zid edi.

Shaharlarda tozalikka yetarlicha e'tibor qaratilmaganligi, shifoxonalardagi shart-sharoitlarning yaxshi emasligi hamda aholi o'rtasida tibbiy madaniyatning pastligi kasalliklarning ko'payishiga olib keldi hamda salbiy holatlarga sababchi bo'ldi. 1981-yil Koson shahridagi bolalar shifoxonasida 1885 bola davolangan bo'lsa, shundan 47 tasi vafot etgan. Qarshi shahrida 1985-yilda 31 ta o'lik tug'ilish qayd etilgan bo'lsa, 1986-yilning 5 oyida o'lik tug'ilish 35 tani tashkil etgan. Beshkent shahridagi rayon markaziy shifoxonasining tug'ruq bo'limida 1990-yil 17 nafar bola o'lik tug'ilgan bo'lsa, 1991-yilning 6 oyida 16 nafar bola o'lik tug'ildi[16].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). XX asrning 70 — 80

yillarida O'zbekistonning janubiy hududlari shaharlarining sog'liqni saqlash tizimiga mablag'lar ajratilishi natijasida davolash muassasalari, ixtisoslashgan shifoxonalar, poliklinika binolari bunyod etilib, ular tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlashga harakat qilindi. Qashqadaryo va Surxondaryo oblastlari shaharlaridagi davolash muassasalarida tibbiy xodimlar miqdori ko'payib bordi. Sohadagi muayyan yutuq va muvaffaqiyatlar bilan birga, qator xato va kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan. Davolash muassasalarining moslashtirilgan binolarda joylashishi, shifoxonalarda malakali tibbiyot xodimlarining yetishmasligi va tizimdagi muammolarga yetarlicha e'tibor qaratilmaganligi soha rivojiga salbiy ta'sirini ko'rsatgan edi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, S-17-fond, 38-ro'yxat, 65-ish, 24-varaq.
2. Qarshi tuman davlat arxivi, S-320-fond, 1-ro'yxat, 17-ish, 10-varaq.
3. Jo'raqulov O., Rahmatov A. Shahrisabz yilnomasi. –Toshkent: Fan, 2007. –B. 24.
4. Jarqo'rg'on haqiqati gazetasi // 1990 yil 26 may. №64 (6511).
5. Mirzayev R. Denov tibbiyot tizimi ravnaqi. –Denov: Jayxun, 1997. –B. 45, 178.
6. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, S-5-fond, 30-ro'yxat, 71-ish, 56-varaq.
7. Narodnoye xozyaystvo Uzbekskoy SSR v 1972 g. Statisticheskii yejigodnik. –Tashkent: Uzbekistan, 1973. –S. 320.; Narodnoye xozyaystvo Uzbekskoy SSR v 1990. Statisticheskii yejigodnik. –Tashkent: Uzbekistan, 1991. –S. 136-137.
8. G'uzor tuman davlat arxivi, S-8-fond, 1-ro'yxat, 152-ish, 128-varaq.
9. Mamatqulova M. Hayot sinovlari yoxud sabr kosasi. –Toshkent: Meriyus, 2015. – B. 169.
10. Boysun tuman davlat arxivi, S-80-fond, 1-ro'yxat, 184-ish, 35-varaq.
11. Koson tuman davlat arxivi, S-5-fond, 1-ro'yxat, 133-ish, 8-varaq.
12. Sherobod tuman davlat arxivi, S-45-fond, 1-ro'yxat, 325-ish, 7-varaq.
13. Sho'rchi tuman davlat arxivi, S-163-fond, 1-ro'yxat, 249-ish, 69-varaq.
14. Uzun tuman davlat arxivi, S-491-fond, 1-ro'yxat, 9-ish, 73-varaq.
15. Denov tuman davlat arxivi, S-425-fond, 1-ro'yxat, 564-ish, 143-varaq.
16. Polvonov K. Qashqadaryo vohasi shaharlari tarixi (1970-2021 yillar). –Toshkent: Tamaddun, 2022. –B. 70.